

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI  
SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI  
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI

JURAYEVA DILAFRUZ JAMURODOVNA

# Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda treninglardan foydalanish

(Boshlang'ich sinfo o'qituvchilari uchun ko'rsatma)



SAMARQAND - 2023



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI  
SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI  
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI**

**JURAYEVA DILAFRUZ JAMURODOVNA**

# **Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda treninglardan foydalanish**

*(Boshlang'ich sinf o 'qituvchilari uchun ko 'rsatma)*

SAMARQAND - 2023

D.Jurayeva. Kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda treninglardan foydalanish. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun uslubiy ko‘rsatma. Samarqand VPYaMO‘MM, 2023-yil, 38 bet.

**Taqrizchilar:** M.Maxmudova – SamDChTI Pedagogika va psixologiya kafedrasi professori, p.f.d.

D.Rabbonayeva - Samarqand viloyati Pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Ushbu uslubiy ko‘rsatmada hozirgi vaqtda ta’lim qatnashchilari o‘rtasida dolzarb bo‘lib b o‘rayotgan muloqot madaniyati, kommunikativ ko‘nikmalarning ahamiyati yoritib berilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda turli xil trening mashg`ulotlarini tashkil etishning samarali yo‘llari taklif etilgan. Mazkur ko‘rsatma boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

*Uslubiy ko‘rsatma markaz Ilmiy kengashining 2023 yil 10-fevraldagidan yig‘ilishining \_\_\_-sonli qarori bilan nashr etishga ruxsat berilgan.*

## KIRISH

Inson kapitalini to‘plash bu shunchaki ko‘nikma yoki bilimlarni takomillashtirish emas, balki nafaqat tor ma’noda o‘rganish, balki so‘zning keng ma’nosida ta’lim berish, hayot va ishlab chiqarish tajribasiga ega bo‘lish orqali erishiladigan shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishdir. Bilim - bu kuch, ammo bilim ma’lum mablag‘ni ham talab etadigan jarayondir. Bilimga ega bo‘lish va undan qanday foydalanishni bilish ikki xil narsadir.

Hozirda o‘qituvchilardan XXI asr ko‘nikmasi, ya’ni “4 K” ko‘nikmasini shakllantirish talab qilinmoqda. Bular, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlashdir. Kollaboratsiya -

Bugungi kunda biz kommunikativ kompetentlik deb ataydigan samarali muloqot qilish qobiliyati har doim ko‘plab olimlarni qiziqtirgan. Tilshunoslik, sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika kabi fanlar va boshqa zamonaviy bilim sohalarida shaxslararo o‘zaro munosabatlarni, shaxsning kommunikativ xatti-harakatlarini nazariy o‘rganishga e’tibor qaratilgan. Biroq, odamning ijtimoiy funksiyalarni bajarishda uning nutqiy tayyorligini ham amaliy o‘rganish zarur hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda ishlab chiqilgan kommunikativ kompetentlik tushunchasi, bizning fikrimizcha, ijtimoiy-gumanitar bilimlarni o‘quvchilarning barcha hayotiy jarayonlarida barkamol aloqa qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish va shuning uchun ularning ijtimoiy funksiyalarni bajarish uchun amaliy harakatlari bilan bog‘lashga yordam beradi. Shunga ko‘ra, turli xil ta’lim islohotlarini amalga oshirishda, xususan, ta’lim tizimining yangi davlat standartlariga o‘tishida va bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda e’tiborga olinishi mumkin bo‘lgan ilmiy tavsiyalarning ahamiyati o‘sib bormoqda.

Mamlakatimizdagi ta’lim islohotlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, shaxsning eng ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlari: muloqotchanlik, mas’uliyatlilik, tashabbuskorlik, biznesga ijodiy yondoshish, qaror qabul qilish kabi qobiliyatlarini rivojlantirish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Bunday fazilatlarni bo‘lajak mutaxassislarda shakllantirish, ularga kelajakda samarali faoliyatni sifatli olib borishga imkon beradi. Muammo shundaki, nutq mas’uliyatini oshirish bilan

bog‘liq kasblar uchun yuqori sifatli samarali muloqotni, so‘zni o‘zlashtirish qobiliyati, so‘z yordamida professional muammolarni hal qilishga o‘rgatishdir. Bizning tadqiqotdan ko‘zlagan maqsadimiz pedagogika fanlarini o‘qitish jarayonida texnika oliy ta’lim muassasalari o‘quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, nazariy jihatdan asoslash hisoblanadi.

Taniqli olim N.A.Muslimovning ta’kidlashicha shaxsga yo‘naltirilgan zamonaviy ta’lim texnologiyalarini samarali amalga oshirish uchun o‘quvchilar zarur darajada kommunikativ kompetentlikka ega bo‘lishi, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘zaro ta’sir jarayonlariga moslashuvchan bo‘lishi, kommunikativ texnologiyalarni qo‘llaganda o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘zaro bir-birini tushunishi talab etiladi.

Pedagog olim Sh.S.Sharipov oliy ta’lim tizimidagi o‘qituvchining kasbiy mahorati nafaqat bilim va ko‘nikmalar to‘plami bilan cheklanib qolmaydi, balki ularni haqiqiy o‘quv amaliyotida qo‘llash samaradorligi bilan belgilanadi. Kompetentlikka ega bo‘lish qobiliyatatlilikni anglatadi, mavjud bilimlarni, tajribani muayyan vaziyatlarda muammoni hal qilish uchun safarbar eta olishlikni anglatishini qayd etadi.

Hamdo‘stlik mamlakatlari olimlaridan F.E.Zeyer ta’lim jarayonidagi qulay axloqiy va ruhiy muhit, o‘quvchilar bilan muloqotning insonparvarligi va demokratlashuvi, o‘zaro aloqalarning samaradorligi, muammolarni hal qilishdagi samaradorlik, o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘z faoliyatidan qoniqish hosil qilishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining kommunikativ kompetentligiga bog‘liq ekanligini e’tirof etadi.

M.I.Luk'yanova asosiy tushuncha bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarning tuzilmasi bu kompetentlikdir. Kompetentlik o‘quv jarayoni natijalari va kasbiy faoliyatga bo‘lgan talablarni anglashning hozirgi yo‘nalishlarini aks ettiradi va ta’lim sifatini baholash jarayonlarini tavsiflash va uni takomillashtirishni ta’minalash uchun zarurligini aytadi.

## **KOMPETENTLIKNING SHAXS SHAKLLANISHIDAGI O'RNI**

Kompetentlik - bu bilimga asoslangan haqiqiy, shakllangan shaxsiy sifat hisoblanib, shaxsning intellektual va shaxsan aniqlangan ijtimoiy va kasbiy shakllanishidir. Kompetentlik - bu muayyan obyektlar va jarayonlar bilan bog'liq holda aniqlangan va ularga nisbatan yuqori sifatli ishlab chiqarish faoliyatni uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq xususiyatlarni to'plamini (bilim, ko'nikma, faoliyat usullari) o'z ichiga oladi. Shunday qilib, ushbu tushunchalarni aniqlaydigan olimlar, kompetentlik deganda o'quvchining ta'limga jarayonidagi tayyorligiga bo'lgan ma'lum bir ajratib olingan, maxsus talabni nazarda tutishgan.

Kompetentlik, shuning uchun nafaqat insonning faoliyatini, balki, insonning o'zini ham faoliyat sub'ekti sifatida tavsiflaydi. Kasbiy kommunikativ kompetentlik tarkibiga har qanday kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan quyidagi sifatlar kiradi :

- biznes sohasida yozma va og'zaki muloqot qobiliyatları;
- ish yuzasidan muzokaralar olib borish qobiliyati;
- ish etiketiga mos ravishda aloqa o'rnatish qobiliyati;
- jamoa a'zolari bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatish qobiliyati;
- hamkasblar bilan, rahbariyat va xizmatchilar bilan konstruktiv shaxslararo munosabatlarni o'rnatish qobiliyati (sheriklar bilan aloqa);
- nizolarni oldini olish va hal qilish qobiliyati;
- turli xil biznes vaziyatlarida o'zlarining xatti-harakatlarini va suhbatdoshning xatti-harakatlarini modellashtirish va tartibga solish qobiliyati;
- professional va shaxsiy muammolarni hal qilishga tayyorlik (qaror qabul qilish, tahlil qilish, shakllantirish, muhokama qilish va hal qilish);
- suhbatdoshni tinglash va eshitish qobiliyati va boshqa ba'zi ko'nikmalar.

O'qituvchi uchun ham kommunikativ kompetentlikning ahamiyati kasbiy faoliyatni uchun alohida ahamiyatga ega, chunki o'quv jarayonining ikkita asosiy

subyekti - o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta’siri asosan muloqotdir va bu so‘zlashuv yordamida amalga oshiriladi. O‘qituvchining kommunikativ kompetentligi, shuningdek, o‘quvchilar bilan birgalikda ishslash sharoitida o‘z maqsadlariga erishish uchun uning hamkasblari, ota-onalar va o‘quv jarayonining boshqa subyektlari bilan ish munosabatlarining butun tizimini tartibga soladi. Pedagogik sohadagi muloqot o‘qituvchining kommunikativ kompetentligining tarkibini belgilaydigan bir qator xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Birinchidan, kundalik ish hayotida o‘qituvchining kommunikativ kompetentligi so‘z boyligi, bilim, ko‘nikma va malakalarini darjasи, pedagogik vaziyatni obyektiv baholashga tayyorligi bilan namoyon bo‘ladi, shu munosabat bilan uning namoyon bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan maxsus pedagogik topshiriqlarni taqdim eta olishi zarur. Bunday holatlar juda ko‘p va juda xilma-xil. Ulardan ba’zilarini keltiramiz:

- 1) o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan tanishish holati;
- 2) mavzuni izohlash, tushuntirish – tushunish;
- 3) tayanch ilmiy ma’lumotlar berish;
- 4) o‘quvchi faoliyatini baholash;
- 5) o‘qituvchi xatosi va boshqa holatlar.
- 6) xulq-atvor me’yorlarining buzilishi (shovqin, baland ovozda gapirish va h.k);

Har bir pedagogik vaziyat o‘qituvchidan ma’lum nutq janrlariga ega bo‘lishni talab qiladi. Shunday qilib, birinchi turdagи holatlar uchun salomlashish, muomala, taqdimot kabi janrlarini o‘zlashtirishi kerak. Vaziyatlarning ikkinchi guruhi uchun - suhbatlar, ma’ruzalar, savollar; uchinchisi uchun - buyurtmalar, talablar, buyruqlar, rag‘batlantirish, maslahat, so‘rovlar, ishontirish; to‘rtinchisi - maqtov, iltifot, ma’qullash kabilar.

Jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichida ta’lim tizimi madaniy va tarixiy rivojlanish modelining o‘zgarishi bilan bog‘liq jiddiy o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Ta’lim tizimida qanday islohotlar amalga oshirilmasin, bari=bir ular ishtirokchiga – ya’ni, o‘qituvchi shaxsi zimmasiga yuklanadi. Aynan o‘qituvchi turli xil innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishda asosiy shaxs hisoblanadi.

Yangiliklarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun (va ta’limni modernizatsiyalashning asosiy g‘oyalaridan biri bu kompetentliklarni rivojlantirish), yangi sharoitda unga qo‘yilgan vazifalarni hal qilish uchun o‘qituvchi zarur darajadagi kasbiy mahoratga ega bo‘lishi kerak.

Kommunikativ kompetentlik (lotincha competens - to‘g‘ri, qodir) - boshqa odamlar bilan samarali aloqalarni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash qobiliyati, degan ma’noni anglatadi.

Kommunikativ kompetentlik o‘qituvchining asosiy qobiliyatlaridan biri sifatida belgilangan. Agar o‘qituvchi yetarli darajada kommunikativ kompetentlikka ega bo‘lmasa, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘zaro ta’sir o‘tkazish jarayonini moslashuvchan boshqarishga tayyor bo‘lmasa, shaxsga yo‘naltirilgan zamonaviy texnologiyalarni joriy etish mumkin emas (chunki, o‘qituvchilik kasbi ham o‘zgaruvchan, ham boshqaruvchidir), o‘quvchilar bilan o‘zaro teskari aloqa texnologiyalarini qo‘llaydi, o‘zaro bir-birini tushunishni rivojlantiradi va hokazolar.

O‘quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishni o‘quv jarayoni ishtirokchilarining rivojlanishi va o‘zini namoyon qilish usullaridan biri sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Shunday qilib, kommunikativ kompetentlik shaxsiy muvaffaqiyat, raqobatbardoshlik va shaxsiy qoniqish, shuningdek, ta’limning sifatiga bog‘liq bo‘lgan yuqori kasbiy darajaning asosiy qismlaridan biriga aylanadi. Faol va samarali tinglash konstruktiv muloqotning asosiy shartlaridan biridir.

Kommunikativ kompetentlikning quyidagi turlari mavjud:

- qo‘llanishi bo‘yicha: umumiy va kasbiy;
- sifat jihatidan: ijodiy va reproduktiv;
- o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha: tinglovchining va ma’ruzachining kompetentligi.

Kommunikativ kompetentlik shartlaridan biri bu muayyan qoidalar va talablarni bajarishdir.

## **TA'LIMDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH YO 'LLARI**

Ta'limga jarayonida o'quvchilar kommunikativ kompetentligini shakllantirish maqsadida o'qituvchining kasbiy pozitsiyasi tipologiyasini rivojlantirish modellarining samarali imkoniyatlarini ish tajribamiz davomida aniqlashga muvaffaq bo'ldik:

1. "Suqrot" modelining imkoniyatlari. O'qituvchi faol bahs-munozaralarni tashkil qilish orqali auditoriyada keng e'tiborga sazovor bo'ladi. Faol munozarada o'ziga xos individualikka, doimiy intellektual bellashuv muhitini yaratishga asoslanadi, o'quvchilar o'z qarashlarini asoslashga izchil harakat qiladilar.
2. "Guruhiy munozara" modelining imkoniyatlari. Munozara asosan juftlikda va shamoaviy shaklda amalga oshiriladi. O'qituvchi uchun o'quv jarayonidagi asosiy jihat o'quvchilar pedagogik hamkorlikni yo'lga qo'yishdir.
3. "Mahorat" modelining imkoniyatlari. O'qituvchi ibrat namunasi sifatida harakat qiladi, o'zining har bir harakatini o'quvchilarning e'tiborini tortishga qaratadi.
4. "Intizom" modelining imkoniyatlari. O'qituvchi har qanday noaniqlikdan qochadi, talabchanlikni ta'kidlaydi, har doim har qanday vaziyatni tezkor tahlil qiladi va ijobjiy yechim bo'ladigan maqbul fikrni ilgari suradi. Bu uslub pedagogik amaliyotda ahamiyatlidir.
5. «Menejer» modelining imkoniyatlari. O'quvchilarning tashabbuskorligi va mustaqilligini rag'batlantiradigan samarali, auditoriya muhiti bilan bog'liq bo'lgan bo'lib unda o'qituvchi har bir o'quvchi bilan hal qilinayotgan muammoning ma'nosini, sifat nazorati va yakuniy natijani baholashni muhokama qilishga intiladi.
6. «Murabbiy» modelining imkoniyatlari. Auditoriyadagi muloqot muhiti o'zaro hamkorlik ruhi bilan qoplangan. Bu holatda o'quvchilar bitta jamoaning o'yinchilariga o'xshaydi, bu yerda har biri alohida shaxs sifatida muhim emas, lekin ular birgalikda ko'p ish qilishlari mumkin. O'qituvchining asosiy maqsadi -

yakuniy natija, ajoyib muvaffaqiyat va g‘alaba uchun guruh a’zolari harakatlarni ilhomlantirish hisoblanadi.

O‘qituvchilar o‘quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga e’tibor va mas’uliyat bilan yondashishlari hamda o‘quv mashg‘ulotlarini olib borishda auditoriyada quyidagilarga amal qilishi kerak deb hisoblaymiz:

1. “Muloqotga doimiy tayyorlik”. Muloqot jarayonidagi umumiy va shaxsiy to‘sqliarning mavjudligi ko‘pincha ma’lumotlarni o‘quvchilar tomonidan chala va noto‘g‘ri tushunishiga olib keladi.

2. “Aniqlik”. O‘qituvchi mavhum iboralar va so‘zlardan foydalanmasligi va juda keng tarqalmagan atamalarni ishlatmaslik kerak.

3. “Hatti-harakatlarni tizimlashtirish”. O‘qituvchi faqat nutqi va muloqot tarkibini boshqarishi emas, balki, yuz ifodalarini, imo-ishoralarni, intonatsiyani va xulq- atvorini ham nazorat qilish kerak.

4. “Shaxsiy xatolik”. Muloqotda har doim o‘z shaxsiy nuqtai nazarimizni noto‘g‘ri bo‘lishi ham mumkin, deb taxmin qilishimiz kerak. Bu bizni jiddiy xatolarga yo‘l qo‘yishdan saqlaydi.

5. “Joy va vaqt”. Agar biror ma’lumotni yetkazish o‘z vaqtida va eng maqbul vaziyatda amalga oshirilsa, har qanday ma’lumotning ta’sirchanligi keskin oshadi.

6. “Ochiqlik”. O‘z nuqtai nazarimizni bahsli holatlar ta’sirida yuzaga kelgan yangi vaziyatlarda qayta ko‘rib chiqishga tayyorlik, suhbatdoshning fikrini qabul qilish va hisobga olish qobiliyati.

7. “Qaytar aloqa”. Aloqa jarayonining asosiy maqsadiga erishishni ta’minalash – o‘zaro bir-birini tushunish.

Kommunikativ kompetentlik tarkibi quyidagi qismlarga bo‘linadi: kommunikativ bilimlar, kommunikativ ko‘nikmalar va kommunikativ qobiliyatlar.

**Kommunikativ kompetentlik tarkibi:**

- muloqot nima ekanligini tushunish, uning turlarini, rivojlanish fazalarini bilishi;
- kommunikativ usullar va uslublar, ularning harakatlari, imkoniyatlari va cheklowlari;

- turli odamlarga va turli vaziyatlarga qarshi samarali usullar;
- o‘zlarining kommunikativ qobiliyatlari va usullarining rivojlanish darajasi, o‘zlarining ishlaridagi samarali usullar.

Kommunikativ ko‘nikmalar tarkibi:

- nutq qobiliyati;
- tashqi va ichki ko‘rinishlarni uyg‘unlashtirish, fikr-mulohaza yuritish, muloqot jarayonidagi to‘silalarini yengib o‘tish qobiliyati;
- interfaol ko‘nikmalar: muloqotni demokratik asosda qurish, qulay hissiy va ruhiy muhitni yaratish, o‘zini-o‘zi boshqarish qobiliyati, kasbiy etika va odob-axloq qoidalari va bu qoidalariiga amal qilishi, faol tinglash qobiliyati;
- ijtimoiy-pertseptual qobiliyat: muloqotda sherikning xatti-harakatlarini yetarli darajada idrok etish va baholash, imo-ishoralar orqali uning holatini, istaklari va harakatlarining sabablarini aniqlash, boshqalarning shaxs sifatida munosib qiyofasini yaratish, ijobiy taassurot qoldirish qobiliyati.

Kommunikativ qobiliyatlar tarkibi:

- muloqot o‘rnataladigan kommunikativ vaziyatning ijtimoiy-psixologik prognozini berish qobiliyati;
- kommunikativ vaziyatning o‘ziga xosligiga asoslangan muloqot jarayonini ijtimoiy-psixologik dasturlash;
- kommunikativ vaziyatda muloqot jarayonlarini ijtimoiy-psixologik boshqarishni amalga oshirish.

## **KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANING PEDAGOGIC VA PSIXOLOGIK AHAMIYATI**

Kommunikativ kompetensiya, birinchi navbatda, shaxsning rivojlanishi va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonida shakllanadigan o‘qituvchining shaxsiy sifati; ikkinchidan, pedagogik muloqot maqsadlari, mohiyati, tuzilishi, vositalari, xususiyatlari to‘g‘risida o‘qituvchining xabardorligi ko‘rsatkichi; tegishli texnologiyani bilish darajasi; mutaxassisning individual psixologik fazilatlari; aloqa faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirishga intilish; inson shaxsiyatiga

yo‘naltirish, asosiy qadriyat sifatida, shuningdek, pedagogik muloqot jarayonida yuzaga keladigan muammolarni nostandart, ijodiy hal qilish qobiliyati. Kasbiy muloqot o‘qituvchining kommunikativ kompetensiyasining asosiy qismidir, u har doim hamjamiyatni, o‘xhashlikni, o‘zgalarni anglash va qabul qilishga bo‘lgan o‘zaro intilishni, nafaqat oqilona o‘lchash va javob berish, balki hissiyot bilan hamdard bo‘lishni nazarda tutadi.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarda “kompetensiya” tushunchasi nisbatan yaqinda keng tarqaldi. 1960-yillarning oxiri 1970-yillarning boshlarida g‘arbda va 1980-yillarning oxirlarida mahalliy adabiyotlarda maxsus yo‘nalish – ta’limda kompetensiyaga asoslangan yondashuv paydo bo‘ldi. Kompetensiyaviy yondashuvda ta’lim natijasiga e’tibor beriladi va, natijada, olingan ma’lumot miqdori emas, balki insonning qobiliyati turli xil muammoli vaziyatlarda harakat qilish, shu bilan birga, ta’lim natijalari ta’lim tizimidan tashqarida muhim deb tan olinadi.

Pedagogika fanida kompetensiya tushunchasi quyidagicha ko‘rib chiqiladi: mehnat samaradorligini belgilaydigan bilim va ko‘nikmalar to‘plami; vazifalarni bajarish qobiliyatları miqdori; shaxsiy xususiyatlar va xususiyatlarining kombinatsiyasi; bilim va professsional ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlar to‘plami; professionalizatsiya vektori; ishlashga nazariy va amaliy tayyorlikning birligi; murakkab madaniyatga o‘xhash harakat turlarini amalga oshirish qobiliyati va boshqalar.

Shunday qilib, biz o‘qituvchining ikki tomonlama e’tiborga ega bo‘lgan kommunikativ, axborot va tartibga soluvchi asosiy kompetensiyalari haqida fikr yuritishimiz mumkin – bu o‘quvchilarga va o‘ziga qaratilgan. O‘qituvchining kommunikativ kompetensiyasi bu kasbiy ahamiyatga ega, integral sifat bo‘lib, uning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardir: hissiy barqarorlik (moslashuvchanlik bilan bog‘liq); ekstraversiya (maqom va samarali yetakchilik bilan bog‘liq); to‘g‘ridan to‘g‘ri va teskari aloqani loyihalash qobiliyati; nutq qobiliyatları; tinglash qobiliyati; mukofotlash qobiliyati; noziklik; muloqotni “silliq” qilish qobiliyati.

Zamonaviy tadqiqotlarda kommunikativ kompetensiya o‘qituvchidan (kommunikatordan) o‘quvchiga (qabul qiluvchiga) va, aksincha, ma’lumotni semantik idrok etishni ta’minlaydigan pedagogik funksiyalar to‘plamini o‘zlashtirish deb tushuniladi.

Kommunikativ kompetensianing tuzilishi ancha murakkab, ko‘p darajali va ko‘p faktorli xususiyatga ega. Biz faqat uning pedagogik jarayon bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, amaliy jihatdan eng ko‘p talab qilinadigan va ilmiy-pedagogik adabiyotlarda chuqur o‘rganilgan tarkibiy qismlariga to‘xtalamiz. Kommunikativ kompetensianing asosiy tarkibiy qismlarini ochib beramiz:

Birinchi komponent – bu kelajakdagi o‘qituvchining qadr-qimmatga bo‘lgan o‘z-o‘zini tutishi.

Kommunikativ kompetensianing ikkinchi komponenti – bu matn va nutqni tahlil qilish, savollar berish, ularga javob berish, dialog va monolog o‘tkazish, o‘z nuqtayi nazaringizni himoya qilish, nuqtayi nazardan mulohaza yuritish imkonini beradigan bilim, ko‘nikma va malakalarning integral kompleksidir.

Kommunikativ kompetensianing uchinchi komponenti – bu muomala madaniyati, bu turli xil aloqa vaziyatlarida yetarli xulq-atvorga oid bilim, ko‘nikma va malakalar tizimidir.

Kommunikativ kompetensianing bir qismi sifatida pedagogik aloqada nutqning har xil turlari mavjud, ammo o‘qituvchi ishontiradimi, xabar beradimi, o‘qituvchi o‘quvchilarni chaqiradimi, qat’i nazar, uning nutqiga alohida talablar qo‘yiladi: to‘g‘riliqi, aniqligi, soddaligi, izchilligi, mavjudligi, boyligi (lingvistik vositalarning xilma-xilligi), obrazliligi, emotSIONalligi. “Muloqotda nafaqat so‘zlar, balki so‘zlarni boshqa odamlarga ta’sir o‘tkazish vositasiga aylantiradigan narsa qanday aytilgani ham muhimdir”.

Muloqotni kommunikativ kompetensianing tarkibiy qismi sifatida alohida ajratib, A.S. Belkin o‘zaro aloqani uning eng muhim jihat deb ta’kidlaydi:

– vasiylik (maktabgacha yoshdagi davr) kattalarning maqsadlarni belgilashda va bolaga yordam berishdagi maksimal rolini, maqsadlarni anglashning eng past

darajasi va bolalarning kattalarga yordam berishda minimal rolini bajarishi bilan tavsiflanadi;

- murabbiylik (boshlang‘ich maktab davri) o‘qituvchiga yordam berishda bolalar rolining oshishi kattalarning hal qiluvchi roli bilan ajralib turadi;
- sheriklik (boshlang‘ich maktab, o‘smirlig yoshi), bu yerda kattalarning roli ustun turadi, ammo maqsadlarni anglashda tenglik saqlanib qoladi, faoliyatning muvaffaqiyati birgalikdagi harakatlarning nisbatan tengligi bilan ta’minlanadi;
- kooperatsiya (yosh va kattaroq o‘spirinlik), bu yerda kattalarning roli yetakchi sifatida belgilanadi, o‘zaro ta’sir ishtirokchilari tomonidan maqsadlar birligini yetarlicha anglash;
- muvaffaqiyat birgalikdagi sa’y-harakatlarning tengligi.

Ushbu bosqichlarni bilish kommunikativ kompetensiyaning asosini tashkil etadi, chunki o‘qituvchi turli yoshdagi bolalar bilan muloqotni haddan tashqari holatlarni istisno qiladigan tarzda tashkil etish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kommunikativ kompetensiya nuqtayi nazaridan peda-gogik taktika o‘qituvchining ma’naviy yetukligi natijasini aks ettiradi. Avvalo, bu bolalarning yoshi va individual xususiyatlari psixologiyasini bilish; axloq asoslarini bilish; harakatlarning axloqiy ma’nosini ko‘rish qobiliyati; o‘quvchilarga ta’sir o‘tkazish usullarini bilish; pedagogik mahorat; bolalarni sevish; bolalar xulq-atvorini kuzatish; atrof-muhitni boshqarish; tegishli ta’sir usulini tanlash; bolalar bilan suhbatlashish; o‘z-o‘zini boshqarish va o‘zini tutish,adolatlilik, boshqalarning tajribasida ijodkorlik; pedagogik texnikani rivojlantirish, hazil tuyg‘usi. Bularning barchasi o‘quvchidagi shaxsga bo‘lgan hurmat va uning qadr-qimmati bilan ajralib turadi.

Shunday qilib, pedagogik taktikada kasbiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, psixologik xushyorlik va pedagogik texnika birlashtiriladi. O‘qituvchining faoliyati hech qachon faqat professional doirada cheklanmaydi. Uning ishbilarmonlik fazilatlari inson shaxsiyati bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun pedagogik taktikada o‘qituvchining umumiyl madaniyati, uning ijtimoiy yetukligi, takomillashtirish bo‘yicha doimiy ishi o‘z ifodasini topadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Pedagogik muloqotning navbatdagi tarkibiy elementi bu taktikadir, bu pedagogik takt bilan bog‘liq. O‘qituvchi bolalar oldida turli xil rollarni ijro etadi: darsda – sinf darsga tayyor bo‘lmasganda aniqlik, to‘g‘rilik, jiddiylik va ohanglari; sinfdan tashqari ishlarda – samimiylilik, erkinlik, bu, ayniqsa individual suhbatda zarur; o‘yin paytida-do‘stlik, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga ishonish. Shuning uchun turli xil aloqa shakllari o‘qituvchidan ohangni o‘zgartirishni talab qiladi.

Yuqoridagilar kommunikativ kompetensiya tarkibiga xos funksiyalarni aniqlashga imkon beradi. Uning yadrosi pedagogik aloqa ekanligini va pedagogik aloqa ta’lim jarayoniga xos deyarli barcha asosiy funksiyalarni bajarishini hisobga olsak, funksional xarakteristikani, bizning fikrimizcha, shu nuqtayi nazardan yozish mumkin. Ammo kommunikativ kompetensiya uchun ushbu funksiyalar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Eslatib o‘tamiz, pedagogik kommunikatsiya, avvalambor, aloqa - axborotni uzatish, pedagogik jarayon ishtirokchilari o‘rtasida ma’lumot almashish tushuniladi. Axborot berish o‘qituvchining barcha harakatlariga hamroh bo‘ladi. Axborot almashish – bu pedagogik faoliyatning eng qiyin yo‘nalishi.

Shu nuqtayi nazardan, biz kommunikativ kompetensiyaning axborot funksiyasini alohida ta’kidlaymiz, bu kundalik, o‘quv, uslubiy, izlanish va boshqa xarakterdagi ba’zi ma’lumotlarni aloqa orqali yetkazishdan iborat. Ushbu funksiyani amalga oshirish to‘plangan hayotiy tajribani, ilmiy bilimlarni o‘zgartirishga yordam beradi, shaxsni moddiy va ma’naviy qadriyatlar bilan tanishtirish jarayonini ta’minkaydi.

Kommunikativ bilim – bu o‘qituvchining, umuman, aloqa nima ekanligini, uning turlari, bosqichlari, shakllari, rivojlanishi qanday ekanligi haqidagi bilimdir. Bu qanday ta’lim usullari va texnikasi mayjudligi, qanday ta’sir ko‘rsatishi, ularning imkoniyatlari va chekllovleri qanday ekanligi haqidagi bilimdir. Shuningdek, qaysi usullar har xil bolalar va turli xil o‘qitish vaziyatlari uchun samarali ekanligini bilishdir. Bu aloqa qobiliyatining rivojlanish darajasi va qaysi

usullar aynan “mening faoliyatimda” samarali ekanligi va qaysi biri samarali emasligi haqidagi bilimdir.

O‘rganish jarayonida kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish, ehtimol, quyidagi yo‘nalishlar hisobga olingan holda samarali davom etadi, degan taxminni ilgari surishga undaydi:

- 1) bo‘lajak o‘qituvchining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishni kasbiy faoliyat va pedagogikadan ajratilgan emas, balki yaxlit, umumiy tamoyillar va tabiat hodisalari asosida qurilgan deb hisoblash kerak;
- 2) har bir o‘quvchining kasbiy rivojlanishini illyustrativ-monografik kuzatish usuli va uning odatdagи vaziyatlarda rivojlanishini tavsiflash va bashorat qilish usuli bilan amalga oshirish lozim;
- 3) kelajakdagi o‘qituvchining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish texnologiyasi illyustrativ-monografik kuzatish va tavsiflash usulini amalga oshirish natija-sida olingan pedagogik tashxisdan kelib chiqadi va uni shakllantirishning kommunikativ qobiliyatlari, ko‘nikmalari va tajribalarini rivojlantirishning individual trayektoriyasini amalga oshiradi.

## **TRENING TUSHUMCHASI**

Trening bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy bilimlarni ham olishning juda mashhur usulidir. Oddiy maktablarda, universitetlarda, kollejlarda va hokazolarda odatiy bilim olishdan farqli o‘larоq, faol o‘rganishni nazarda tutadi.

Trening davomida o‘quvchilarga kognitiv jarayonda faol ishtirok etish taklif etiladi: birinchi navbatda, ba’zi nazariy ma'lumotlar taqdim etiladi, so‘ngra ular bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirishga qaratilgan mashqlarni boshlaydilar.

Treninglar nafaqat hayotning ma'lum bir sohasi haqidagi tushunchangizni kengaytirishga, balki ma'lum ko‘nikmalarga ega bo‘lishga ham imkon beradi.

### **Trening turlari**

Bugungi kunda turli mavzularda turli treninglar keng tarqalgan, ammo umumiy ma'noda ular 4 turga bo‘lingan:

- biznes treningi;

- shaxsiy rivojlanish;
- tarbiyaviy;
- tuzatuvchi.

Ko‘pincha bu guruh treninglari bo‘lib, unda 5 dan 20 gacha yoki undan ortiq kishi ishtirok etadi.

Ular zarur shart-sharoitlarga ega bo‘lgan maxsus xonada o‘tkaziladi: video materiallar taqdimoti uchun jihozlar, diagrammalar va jadvallarni ko‘rsatish uchun taxta, ishtirokchilar uchun joylar. Shunga qaramay, yaqinda Internetda masofaviy treninglarni topishingiz mumkin, ularda ro‘yxatdan o‘tish orqali bo‘lajak ishtirokchilar qatnashish istagini bildiradilar. Ba’zan ular veb-kamera va konferentsiya rejimi yordamida tashkil etiladi, lekin ko‘pincha siz taqdimotchi tomonidan bir kun oldin tayyorlangan va keyin nashr etilgan oddiy videoni topishingiz mumkin.

### **Trening qonunlari**

1.1. Trening qonunlari nima uchun kerak.

Trening boshlanishidan oldin qoidalari (qonunlar) nima uchun qabul qilinadi?

Trening — emotsiyaga boy, noan’anaviy mashg‘ulot bo‘lib, shaxsning muloqot usulini o‘zgartirish, uyg‘unlashtirishga, shaxslararo munosabatlarni yaxshilash, boshqa odamlar bilan muloqotda yuzaga keladigan qaramaqarshiliklarni hal etishga yo‘naltirilgan.

Trening maqsadlari inson psixologiyasining murakkab jarayonlariga, nozik tomonlariga ta’sir etishi mumkin, shuning uchun trenerning ishini qimmatbaho toshga ishlov berayotgan zargar mehnati bilan taqqoslash mumkin.

Trening qoidalari yoki qonunlari guruh ichidagi jarayonlarni nazorat qilish va tartibga keltirish uchun xizmat qiladi. Bu qonunlarni qo‘llash trening qatnashchilari uchun yordam bo‘ladi va aksincha, agar trener bularga e’tibor bermasa trening guruhi “bo‘linib ketishi” yoki qatnashchilarni “yaratashi” mumkin.

Trenerning zargarlik mahorati guruhda intizomni (ayniqsa guruh mifik yoshidagi bolalar va o‘smirlardan tashkil topgan bo‘lsa) o‘rnatishdan boshlanadi.

1.2. Trening qonunlarining maqsad va vazifalari.

1. Trening guruhini umumiy qonunlar asosida jipslashtirish.
2. Guruhiy trening o‘tkazishning asosiy tashkiliy tartibini belgilab berish.
3. Qabul qilingan qonunlar asosida guruhni boshqarish imkoniyati.
4. Trening qonunlarining trening maqsadi va vazifalariga yo‘nalganligi guruhning qo‘yilgan maqsadga erishishiga yordam beradi.

1.3. Trening jarayonida albatta o‘tkazilishi kerak bo‘lgan birinchi bosqich - guruhiy me’yorlarni, ya’ni trening qonun qoidalarini ishlab chiqish bosqichidir. Bunda ishtirokchilar bilan bu me’yorlarga albatta rioya qilish kerakligi to‘g‘risida kelishish va har bir a’zoning roziligini olish kerak. Bu qoidalarga rioya etish treningning maqsadiga erishish va qulay psixologik iqlimning yaratilishida katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

### **TRENINGNING ASOSIY QONUNLARI**

Har bir qonunning mohiyati, vazifalari va ahamiyatini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Trening jarayonida guruhda ishlarni tashkil qilishga doir me’yorlar (tamoyillar) quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin.

1. “*00*” *qonuni*. Barcha ishtirokchilar mashg‘ulot boshlanishiga va tanaffusdan keyin kechikmay kelishlari, bunda trener ularga namuna bo‘lishi kerak. Trening boshlovchisi faqatgina treningni boshqarmasdan guruh bilan birlgilikda tahlil qiladi va o‘zini tutishi va muloqoti bilan qatnashchilarga namuna bo‘ladi.

2. “*Mikrofon*” *qonuni*. Kimning qo‘lida mikrofon bo‘lsa o‘sha odam gapiradi. Mikrofon sifatida mashq o‘tkazish vaqtida aylana bo‘yicha har bir ishtirokchiga uzatiladigan biror bir yumshoq o‘yinchoqdan, oddiy marker yoki ruchkadan foydalanish mumkin.

3. “*Faollik*” *qonuni*. «Siz biror bir mashqni bajarishda ishtirok etmasligingiz mumkin. Bu siz vazifani bajara olmaysiz degani emas, balki siz chetdan turib kuzatmoqchisiz. Bu haqida avvaldan ma’lum qilish kerak bo‘ladi. Lekin guruhdan

bir kishining chiqib ketishi shu guruhning ishiga ta'sir qilishini ham e'tiborga olish kerak bo'ladi.

4. “*Faqat o'z fikrini bayon etish*” qonuni. Bu qonun o'zining fikrini birinchi shaxs nomidan bayon etish, ya'ni “Mening fikrimcha, men his qilaman, mening o'ylashimcha...”. Har bir ishtirokchi guruhninig boshqa qatnashchilarining fikrlarini bilmaydi. Guruh nomidan gapira olmaydi, shuning uchun ko'pchilik, ya'ni “biz” deb boshlanadigan fikrlar mumkin emas.

5. “*Guruhning barcha qatnashchilariga hayrixoh munosabatda, xushmuomala bo'lish*” qonuni. Ushbu qonun quyidagicha talqin qilinadi: “Barchamizning afzallik tomonlarimiz va kamchiliklarimiz bor. Trening vaqtida boshqalarning xususiyatlariga sabrli bo'lish kerak. Agar sizni nimadir qoniqtirmasa, hech bir ishtirokchiga zarar yetkazmagan holda bu haqida trenerga ma'lum qiling”. Bu qonun ayniqsa o'smirlar guruhida muhimdir. Trening vaqtida bir-birini familyasi va laqabi bilan atash mumkin emas.

6. “*O'z ismini aytish*” qonuni. Agar trening qatnashchilari bir-biriga notanish bo'lsa har bir chiqish oldidan o'z ismini aytishi kerak bo'ladi.

7. “*Muloyimlik*” qonuni. Barcha qatnashchilar bir-birlariga xushmuomalalik bilan va o'zlarini taqdim qilganda aytgan ismlari bilan murojaat qilishlari kerak bo'ladi.

8. “*Shu yerda va hozir*” qonuni. Ayni vaqtida va shu yerda bo'layotgan jarayonning, shuningdek, qatnashchilarning his-tuyg'ulari, kechinmalari va munosabatlarini trening doirasida ko'rib chiqish va ularni kelajak yoki o'tmisht bilan bog'lamaslik kerak. Bu qoida guruhning har bir qatnashchisiga mazkur trening vaqtidagi kechinmalarni anglab yetish imkonini beradi.

9. “*Konfidensiallik*” qonuni. “Trening vaqtida sodir bo'ladigan barcha holatlar, vaziyatlar faqat shu yerda va faqat trening qatnashchilari bilan muhokama qilinadi va tashqariga chiqmaydi”. Bu qonun trening qatnashchilariga o'z fikrlarini erkin bayon etish imkonini beradi.

10. “*Ishtirokchi sifatida faqat o'zini taklif etish*” qonuni. Ko'p hollarda ba'zi ishtirokchilar biror bir mashqda ishtirok etishni hohlamasdan boshqa

ishtirokchilarni taklif etadilar. Bu esa boshqalarga ham ta'sir ko'rsatib, treningning muvaffaqiyatli o'tishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun bu qonunni trening boshlanishidan avval tanishtirish kerak bo'ladi.

11. “*Treningning boshidan oxirigacha qatnashish*” qonuni. Bu ishtirokchilarda mas'uliyatni vujudga keltirish uchun zarur bo'lgan tamoyildir.

12. “*Ixtiyoriylik*” qonuni. Treningda o‘z mulohazalarini bayon qilish, munozaralarda, o‘yin va mashqlarda ishtirok etishda ixtiyoriylikni joriy qilishi mumkin.

13. “*Vaqtni tejash – sarishtalik*” qonuni. Guruh ishtirokchilari trening mashg‘uloti davomida gaplarini imkon qadar qisqa, lo‘nda ifodalashi, mavzu doirasidan chetga chiqib ketmasligi lozim.

14. “*Shaxsni baholamaslik*” qonuni. Har bir ishtirokchi o‘z fikr mulohazalarini, hissiyotlarini bayon qilishi mumkin, biroq bunda boshlovchi va qolgan ishtirokchilar hikoyadagi vaziyatnigina muhokama qilishlari kerak va so‘zlovchining o‘sha paytdagi xulq-atvori, hatti-harakatini baholashdan qochishlari kerak. M: “o‘sha paytda siz jahlga berilmasligingiz yoki bunday demasligingiz kerak edi” va hok... Buning o‘rniga bunaqa vaziyatda men bunday qilardim yoki deyardim kabi variantlarda so‘zlashish yoki fikrini bildirish so‘raladi.

### "Olma"

Qatnashuvchilar davra bo‘lib o‘tiradilar. Boshlovchi "Mening ismim.... Men ...ni yaxshi ko‘raman (xohlagan narsa yoki kishining ismini aytish mumkin), - deydi va olmani biron kishiga qarab otadi. Olmani ilib olgan ishtirokchi ham o‘zini shunday tanishtiradi va olmani boshqa ishtirokchiga uzatadi.

Keyin barcha ishtirokchilar o‘zlarini tanishtirib bo‘lgunlariga qadar davom etadi.

Ishtirokchilar tanishtirish jarayonida aytish mumkin bo‘lgan jumlalar:

Men ...ni yaxshi ko‘raman

Men yoqtiragan gul ....

Men yoqtiradigan rang ....

Ishchanlik muhitini yaratuvchi o‘yinlar.

"Azizim, men sizga yoqamanmi?"

Maqsad: diqqatni bir joyga to‘plash, jimlikni saqlash, xotirani yaxshilash.

Hamma doira shaklida o‘tiradi. Boshlovchi o‘zining o‘ng yoki chap tomonida o‘tirgan ishtirokchidan: "Azizim, men Sizga yoqamanmi?", - deb so‘raydi. So‘ralgan odam esa quyidagicha javob beradi: "Azizim, siz menga yoqasiz, lekin men sizga tabassum hadya eta olmayman". Boshlovchi o‘sha odamning tabassum qilishiga yerishish uchun turli hil yuz ifodalaridan, qiziqarli narsalarni gapirib berishdan, qiliqlardan va oxirgi chora sifatida qitiqlashdan foydalanishi mumkin. Shu yo‘sinda ishtirokchilar navbatmanavbat o‘yinni davom ettiradilar. Yetakchi o‘yin jarayonida nima mumkin yoki mumkinmasligini belgilab, nazorat qilib turadi. Masalan, "Yo‘q, menga yoqmaysiz", deyish mumkin emas. O‘yin to oxirgi ishtirokchi boshlovchini tabassum qilishiga erishmaguncha davom etadi.

"Barmoqni ushlab ol!".

Ishtirokchilar doira bo‘lib o‘tirishibdi. Trener: "Hozir hammamiz 1-deganimda o‘ng qo‘lning ko‘rsatkich barmog‘ini ko‘taramiz

2-deganimda chap qulimizni chap tomondagi sherigimizning kursatkich barmog‘i ustiga qo‘yamiz.

3-deganda esa o‘ng qo‘l barmog‘imizni olib qochib, chap qo‘limiz bilan sherigimizning barmog‘ini ushlab olamiz"- deydi. (Ko‘rsatkich barmoq tepaga qaratilgan holda yelkadan pastroq va yon tomonda tutiladi). Qo‘li ushlangan odam qandaydir savolga javob berishi yoki shart bajarishi kerak.

Aqli o‘yinlar

"Taqlid"

Yutqizgan 4 kishi xonadan tashqariga chiqarib yuboriladi, qatnashuvchilar doira bo‘lib o‘tiradilar. Kirgan odamga vazifa berilgach

hamma uning har bir harakatiga baravar taqlid qilishi kerakligi tushuntiriladi. So‘ng birinchi odam kirgiziladi va boshlovchi:

"Siz shunday ish bajaringki hamma qoyil qolib chapak chalsin!"- deydi. O‘yin har bir ishtirokchi chapak chalish kerakligini o‘qib olmaguncha davom yetadi. Agar tushunolmasa trener yo‘naltiradi, yani "Biz nima qilyapmiz?" deb so‘raydi.

Bu o‘yin mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi, sezgirlikka, topqirlikka o‘rgatadi.

Ahillashtiruvchi va tana to‘sıqlarini bartaraf qiluvchi o‘yinlar.

#### "Kema"

Guruh ikki komandaga bo‘linadi. Har bir guruhga bittadan gazeta beriladi.

Guruh a’zolari gazetani katta ochib, oyoqlarini qo‘yib gazeta, yani kemaga chiqib 5-sekund turishlari kerak (sanash hamma tayyor bo‘lib turgach boshlanadi). Keyin gazeta ikki buklanadi, a’zolar chiqishadi. Keyin yana ikkiga buklanadi yana chiqishadi. Shu tariqa gazeta to hamma sig‘ib tura olguncha buklanaveradi. Eng kichik kemada 5 sekund turgan guruh g‘olib hisoblanadi.

Bu o‘yin bir tan bir jon bo‘lishga, guruhning jipslashuviga, ahillashuviga, yordam beradi, epchillikka, chaqqonlikka o‘rgatadi.

#### "Orqama-orqa"

Ishtirokchilar xona bo‘ylab harakat qiladilar. Boshlovchi tana a’zolaridan birining nomini aytadi, masalan, "orqa" deydi. Shunda ishtirokchilar o‘zlariga juft topib, bir-biriga suyanishlari kerak. O‘ziga sherik topa olmagan odam o‘rtaga chiqadi va o‘yinni davom ettirish uchun boshqa tana a’zolarining nomini aytadi (masalan, bosh, qo‘l, oyoq, barmoq, yelka va h.k.).

#### "Qayta tuzilish"

Guruh a'zolari ikki guruhga bo'linadilar va boshlovchining ishorasi bilan turli belgilarga ko'ra tezroq safga tizilishga harakat qiladilar. Masalan, oyoq kiyimi o'lchami, tug'ilgan kuni, tug'ilgan oyi, bo'yi va hokazolar hisobga olinishi mumkin. Tez va to'g'ri saflangan guruh g'olib hisoblanadi.

Trening hamma guruh a'zolari yaxshi bilgan birorta qo'shiqni birgalikda aytib tugallanadi.

## DIQQATNI RIVOJLANTIRISH VA KORREKTSIYaLASH USULLARI

Guruhiy mashg'ulotlar namunalari.

### 1- M A Sh G' U L O T:

Maqsad: kichik mактаб yoshidagi o'quvchilarda ixtiyoriylik va e'tiborlilikni rivojlantirish.

V A Z I F A L A R;

1- Mushaklarni bo'shashtiruvchi mashqlar (izoterapiya elementlarini qo'shsa bo'ladi)

2- «Barini e'tiborga ol»

3- «Tartibni eslab qol»

4- «Buqalamun»

5- Mashg'ulotlar yakuni (kayfiyat rangi)

### 2- M A Sh G' U L O T:

Maqsad: Ixtiyoriylik, e'tiborlilik kabi diqqatning asosiy xossalari ni rivojlantirish.

V A Z I F A L A R;

1- Mushaklarni bo'shashtiruvchi mashqlar (izoterapiya elementlarini qo'shsa bo'ladi)

2- «Boshni qo'lingni ko'tar.»

3- «To'xtamay qidir»

4- «Parchalarni birlashtir-butunini ko'rasan»

5- Mashg'ulotlar yakuni (kayfiyat rangi)

Shunga o'xshash 5-6 ta mashg'ulotlardan keyin quyidagi juftlikda bajariladigan o'yinlarni qo'shish maqsadga muvofiqdir

### 3- M A Sh G‘U L O T:

Maqsad: Diqqat jamlanishini rivojlantirish

V A Z I F A L A R;

1- «Nasos va koptok»

2- «Diqqatni jamlashga mo‘ljallangan mashqlar.»

3- «Ko‘zgu»

4- «Dengiz sohilida»

5- Mashg‘ulotlar yakuni (kayfiyat rangi)

### 4- M A Sh G‘U L O T:

Maqsad: Diqqat jamlanishini rivojlantirish

V A Z I F A L A R;

1- «Nasos va koptok»

2- «Diqqatni jamlashga mo‘ljallangan mashqlar.»

3- «Ko‘zgu»

4- «Dengiz sohilida»

5- Mashg‘ulotlar yakuni (kayfiyat rangi)

### 4- M A Sh G‘ U L O T:

Maqsad: Diqqat barqarorligini rivojlantirish; tovushlarga nisbatan bo‘lgan diqqatni rivojlantirish.

V A Z I F A L A R;

1- «Osilgan-titilgan qo‘g‘irchoq»

2- «Diqqat» saroyiga sayohat.»

3- «Tingla va ijro et.»

4- Muzoterapiya elementlari.

5- Mashg‘ulotlar yakuni (kayfiyat rangi)

Bundan keyin ham mashg‘ulotlar shu tarzda davom etadi. Asosiy maqsad: diqqatning qaysidir bir xossasini rivojlantirish bo‘ladi. Bolalar har bir yangi o‘yinga to‘yinishini alohida nazorat qilib borish kerak. Har bir mashg‘ulotdan keyin bola tomonidan kayfiyatni belgilovchi rang tanlanadi, zero bu, yuqorida ta’kid etilgan to‘yinish hissi xususidagi ma’lumotni berishi mumkin.

14-15 ta mashg‘ulotdan keyin mashqlarga o‘z xatti-harakati nazoratini, urinishlarning irodaviy asoslarini tarkib toptiruvchi elementlarni kiritish ma’quldir.

## KORREKSION TRENINGLAR

Korreksion muolajalarning uchinchi, mustahkamlikni ta’min etib turuvchi bosqichi uyda, mustaqil ravishda yoki ishtiyoqmand ota-onalar boshchiligidagi davom ettiriladi.

Bunday mashg‘ulotlar namunalarini pedagog (psixolog) yakka tartibdagi konsultatsiyalarda beradi.

Ba’zi bir qarovsiz bolalarning psixologik xususiyati sirasiga o‘ta faollik kiradi (ilmiy tilda - giperaktivlik deyiladi).

Bunday bolalar bilan ko‘sishimcha tarzda yana tarkib toptiruvchi bosqichning 5-10 kursini yakka tirtibda o‘tkazish darkor.

Dasturda tilga olingan o‘yinlar tavsifi

Kayfiyatni ranglarda ifodalash.

Maqsad: Bolalarga o‘z kayfiyatini ranglar orqali aks ettirishni o‘rgatish.

Material: Guash, akvarel, oq qog‘oz.

Pedagog bolalarga ranglarni ixtiyoriy tarzda tanlashni taklif qiladi (rangli dog‘, chiziqlar tortiladi)

Izoh: qora va siyohranglar bolalarda tushkunlik, qo‘rquv alomatlari borligidan dalolat beradi.

«Barini e’tiborga ol»

Turli 7-ota predmetlar bir qatorga terilib, usti yopiladi. So‘ng 10 lahzaga ularni ochib yana yopib qo‘yish lozim. Bolaga bunda nimalar borligini sanab berish taklif etiladi.

O‘sha predmetlarning usti yana 8-10 lahzaga ochilib, boladan ular qaytartibda terilganligi so‘raladi.

Predmetlarning ikkitasini o‘rnini almashtirib, bolaga yana 10 lahzaga ko‘rsatiladi. Keyin qaysi predmetlar o‘rni almashganini payqagani so‘raladi.

So‘ng, predmetlarga ortiq ko‘z yogurtirmagan holda, ularning qay biri qaysi rangda ekanini aytib berish taklif qilinadi.

8 predmet ustma-ust terilib, boladan ularni pastdan yuqoriga hamda yuqoridan pastga qarab nomma-nom sanab o‘tish so‘raladi. Keyin ularni yonboshlatib, bir-biriga yaqin qilib yonma-yon terib, bir-birini ustiga qo‘yib bolaga yigirma lahzadan ko‘rsatilib, qaysi predmet qanday holda ekanini aytib berishi so‘raladi.

#### «To‘xtamay qidir»

10-15 lahma mobaynida atrofdagi bir xil rangdagi predmetlarni imkon qadar ko‘proq ko‘rish (bir xil o‘lchamdagisi, yoki bir xil shakldagi, bir xil materialdan yasalgan sh.o.).

Berilgan signaldan so‘ng bittasi ko‘rganlarini sanay boshlaydi, qolganlari to‘ldiradi.

#### «Tartibini eslab qol»

a) O‘yindagilarga 6-7 ta rangli qalamlar ko‘rsatiladi. 20 lahzadan keyin ular olib qo‘yilib, qalamlarning joylashgan tartibi so‘raladi.

b) 5-6ta bola ixtiyoriy tarzda safga tizilishadi. O‘yinni olib boruvchi bola 30-40 lahzaga ular tomonga qarab, yana ters o‘girilgan holda, kim kimdan keyin turganini sanab beradi. Undan so‘ng o‘yinni olib boruvchi bola boshqasi bilan o‘rnini almashadi.

#### «Ko‘zgu»

Maqsad: Sust bolalarga o‘z faolligini namoyon qilishlariga imkon berish.

O‘yin. O‘yinni olib boruvchi tayinlanadi, qolgan bolalar-«ko‘zgu» bo‘lishadi. U «ko‘zgu»larga qaraydi, ular esa uning hatti-harakatini aks ettiradilar. Kattalar «aks»larning to‘g‘riligini kuzatishadi.

#### «Diqqat qasri»

Ikki bola 8 ga 8 hajmdagi kvadrat chizishadi (jami 64ta katak hosil bo‘ladi.) Kvadratning yuqori qatori bo‘ylab hamda chekka yon tomonini 1 dan 8 gacha tartib raqamlari yoziladi. Bir o‘yinchi kvadrat ichidagi «Diqqat saroyini» belgilaydi (u bir katakda bo‘ladi) hamda unga eltuvchi yo‘lni chizadi. Yo‘l har tomonga bo‘lishi mumkin (balandga, pastga, yon tomonga).

Faqatgina bir qoida bor: katak markazidan boshlanib, katak markazida tugaydi. Yo‘l o‘zini-o‘zi kesib o‘tishi mumkin emas. Birinchi o‘yinchi o‘zi solgan yo‘lni 2- o‘yinchiga 20-30 s. ko‘rsatib, yashiradi. 2- o‘yinchi o‘z xotirasiga tayanib, 1-o‘yinchining yo‘lini o‘z varaqasida belgilab boradi.

Yo‘l boshi va oxiri unga ko‘rsatiladi. 2-o‘yinchi qadam tashlashdan avval, uning koordinatasini aytadi (gorizontal va vertikal tartib raqamlari).

To‘g‘ri bo‘lsa, o‘sha kataknini belgilaydi, agar adashsa, 1-o‘yinchi uning adashganini aytadi. Agar 2-o‘yinchi «Diqqat saroyi»ga yetgunga qadar 5 ta xatoga yo‘l qo‘ysa, yutkazgan hisoblanadi. O‘yin tugashi bilan ular o‘rin almashadilar.

### *Korrektor sinovlar*

1-vazifa. Qizchalar.

Qizchalar tasviri tushirilgan maxsus varaqalar taklif etiladi. O‘yin qoidasi: A) qora (oq) tasma-bantikli qizchalarini sana.

B) qora soch va qora bantikli qizchalarini sanab ber.

V) .....oq sochli va qora bantikli.

G) .....qora soch va qora bantikli.

D).....qora soch va oq bantikli.

2-vazifa. Buzoqchalar.

Buzoqchalar tasviri tushirilgan maxsus varaqalar taklif etiladi.

o‘yin qoidalari: A) bir shoxli buzoqlarni sanab ber (ikki shoxli)

B) bir quloqli (ikki quloqli) buzoqlarni sanab ber.

V) .....bir shoxli, bir quloqlilarini (teskarisi).

Va boshqa variantlarda ham.

Vazifani asta-sekin murakkablashtiring (a,v,s.....)

*3-vazifa. Raqqos odamchalar.*

*Yana maxsus varaqqa taklif qilinadi.*

- A) bir oyoqli odamchalarni belgila (chiz,bo‘ya,sana)
- B) qo‘llarini yoyib, bir oyoqda turgan odamchalarni belgila(.....)
- V) Oyoqlarini kerib, qo‘llarini yoyib turgan odamchalarni belgila(..)
- G) qo‘l-oyoqlarini birday yoygan odamchalarni belgila (.....)
- D) oyoqlarini juftlab, qo‘llarini tushirgan odamchalarni belgila(.....).

Boshqa variantlarda ham qo‘llash mumkin.

### Labirint

Orolchada xazina yashirilgan. Unga yetish uchun labirintdan adashmay o‘tish kerak. Labirintlardan adashmay o‘tganlarga «xazina topar» unvoni beriladi.

### Nasos va to‘p

Ikki kishi o‘ynaydi. Biri katta damlanadigan to‘p, ikkinchisi uni shishiradigan nasos. «To‘p»ning dami yo‘q. Oyoq qo‘lini bo‘shashtirib, yarim egilgan holda, boshini tushirib turadi. «Nasos» damlay boshlaydi, u har bir harakatini tovush chiqarib ifodalaydi, «to‘p»ga asta «jon» kira boshlaydi. Sekin tik holga keladi, qo‘llari ko‘tariladi. To‘p damlangandan keyin «nasos shlangi» tortib olinadi va «to‘p» avvalgi holga, bo‘shashib qaytadi. So‘ng juftlik o‘rin almashadi.

### Dengiz sohilida

Bolalar dengiz bo‘yida o‘ynashmoqda. Gohi to‘xtab, engashib tosh terishadi, gohi toshlarni dengizga uloqtirishadi, gohi cho‘milib bir-birlariga suv sachratishadi. Toshlarni osmonga otib, qaytib ilishadi, suvni

chappilatishadi. To‘yib cho‘milib, o‘ynab bo‘lishganlardan keyin, issiq qumga ko‘milib yotishadi. Ko‘zlarini oftobdan yashirishadi, xullas dam olishadi.

### Tingla va ijro et

Olib boruvchi bir necha harakatni aytib o‘tadi, biroq o‘sha xatti-harakatni qilib ko‘rsatmaydi. Vazifani 1-2 marta takror aytishga ruhsat etiladi.

Bolalar olib boruvchi aytib o‘tgan tartibda o‘sha xatti-harakatni bajaradilar.

1. Boshni o‘nga buring, to‘grilang, engashtiring, ko‘taring.
2. o‘ng qo‘lni ko‘taring, chap qo‘lni ko‘taring, ikkisini ham tushiring.
3. Chapga buriling, o‘tiring, turing.
4. o‘ng oyoqni ko‘taring, bir chap oyoqda turing; o‘ng oyoqni qo‘ying.

### Parchalarni birlashtir, butunini ko‘rasan

Biron-bir rasmni kartonga yelimlab, o‘n-o‘n beshta bo‘lak(parcha) qilib, qirqib chiqasiz. o‘ynayotgan bola uni alohida qismlarini ko‘rib turib, unda nimaning rasmi aks etganini aniqlab ko‘radi va tahminini tekshirish maqsadida uni terib chiqadi.

### Faqirlar

Bolalar hind faqirlariga taqlid qilishadi. Gilamchaga o‘tirib (bizda bu o‘tirish «o‘g‘il bolacha» deyiladi) qo‘llarini tizzasiga qo‘yishadi, tirsaklari osilgan, bo‘yin va bel mushaklari bo‘sh, bosh egilgan, ko‘zlar yumuq. Sokin musiqa sadolari ostida faqirlar orom oladilar.

### Buqalamun. (Xameleon)

Avvaliga buqalamun nima ekani tushuntiriladi. U kaltakesakning bir turi bo‘lib, atrofidagi muhitga qarab rangini o‘zgartiradi (ko‘zga tashlanmaslik uchun). Deylik, kulrang tosh ustida kulrang, qumlar orasida sarg‘ish tusga kiradi. Keyin olib boruvchi birma- bir savol-javob qila boshlaydi: agar buqalamun

maysalar ichiga tushib qolsa, qanday tusga kiradi? Agar qora qoya toshda o‘tirgan bo‘lsachi? Bolalar tez javob berishlari kerak, so‘ng javoblar muhokama qilinadi.

o‘yin musobaqa tarzida o‘tadi. Avvaliga vaqt belgilanmaydi, biroq keyin qo‘sishimcha shart kiritiladi, ya’ni kim hammadan tez, to‘g‘ri javob bersa o‘sha g‘olib sanaladi.

Osilgan-titilgan qo‘g‘irchoq.

Osilgan-titilgan qo‘g‘irchoq

o‘tirar devor ustida.

Osilgan-titilgan qo‘g‘irchoq

Yiqiladi uyqusida.

Bola oyoqlarini siljitmagan holda gavdasini o‘nga, chapga buradi. qo‘llari latta qo‘g‘irchoqning qo‘llariday osilib turadi. «Yiqildi uyqusida» degan jumlanı eshitishi bilan gavdasini keskin engashtiradi.

## **IJTIMOIY PSIXOLOGIK TRENINGLAR UCHUN SSENARIYLAR VA MUNOZARALAR UCHUN AYRIM MAVZULAR**

1. Boshlovchi har bir ishtirokchi kuliga alohida kartochkalarda "LIDER" va "Farosat" so‘zlarini berib chiqadi. So‘zlardagi harflar vertikal kurinishda yozilgan bo‘lib, ishtirokchi har bir harfning ro‘parasiga o‘sha bilan boshlanadigan o‘zidagi shaxsiy sifatlarni ko‘p o‘ylanmay yozib chiqishi kerak.

Maqsad: shaxsning o‘zini o‘zi anglash va o‘ziga nisbatan senzitivlikni aniqlash.

2. "SUD YIG‘ILISHI". Unda quyidagi rollar bo‘ladi: sudya, advokat, jamoatchilik vaqili, er, xotin, qaynona, qaynota. Vaziyat: er xotinining ko‘proq jamoat ishlaridan bandligidan norozi. Uningcha, xotin uy ishlarini bajarishi, konkret vaziyatda u yo ishni, yoki oilani tanlashi kerak.

Maqsad: rolli o‘yin vositasida ziddiyatli sharoitlarda shaxslararo o‘zaro murosa yo‘llarini qidirish.

3. "SAVOLLAR QALAY?" o'yini. Bunda guruh a'zolari juftliklarga bo'linib, doira shaqlida joylashadilar va ichkari tomonda turganlar tashqaridagilarga 30 sekund mobaynida o'z hayotlari haqida gapira boshlaydilar. Unda oxirgi paytlarda hayotda yo'z bergen voqeа, faxrlanish obyeektlari, shirin taassurotlar haqida gapirish mumkin. 30 sekunddan keyin rollar almashinadi. O'yin gapirish va tinglash malakalarini, o'zi haqida gapira olish san'atini, lunda va qisqa gapirish kabi qator sifatlarni tarbiyalaydi.

4. "KOSMIK TEZLIK" o'yini. Asosiy qurol – to'pcha koptokni T-guruh a'zolari doira shaqlida turib, tez-tez bir-birlariga uzatishlari kerak, lekin uni yonidagiga berib bo'lmaydi. Agar qisqa muddatda har bir guruh a'zosi kamida bir marta bexato to'pni qo'lga kiritgan bo'lsa, usha guruh g'olib hisoblanadi. Bunda guruhdagi harakatlar muvofiqligi, psixologik moslik harakatlarning birligi, tez va to'g'ri qaror chiqara olish kabilalar sinaladi.

5. "BOTQOQLIK" o'yini. Buning uchun karton qog'ozdan tayyorlangan o'rtacha kattalikdagi "likopchalar" kerak bo'ladi, ularning soni 9 ta bo'lgani ma'qul. Guruh a'zolari qator bo'lib, birin-ketin tarelkalarni bosib, botqoqlikdan o'ta boshlaydilar, atrofda esa qaroqchi "timsohlar" bor. Ular bo'shab qolgan tarelkalarni olib quyadilar. Maqsad - har bir guruh a'zosi tarelkalardan oyoqni uzmasligi, hech bo'lmaganda, bir oyoqni uchi bilan ularni bosishi kerak. Agar guruh a'zolari ittifoq bo'lib, ular harakatlarida muvofiqlik yuzaga kelsa, albatta botqoqlikdan mag'lubiyatsiz o'tadilar va birorta likopchani timsohlarga bermaydilar.

6. "TELEFON" o'yini. Guruh a'zolari navbat bilan telefonda o'zi tanlagan abonent bilan 30 sekund mobaynida o'zi xohlagan mavzuda gaplashadi. Kuzatuvchilar uning o'zini tutishi, mijoz bilan muomalasi, narigi tarafdagи shaxs bilan gaplashuvchi o'rtaсидаги yakinlik o'zaro munosabatlarni tahlil qiladilar va kerakli maslahatlar beradilar.

7. "INTERVYU" o'yini. Boshlovchi va protagonist interver sifatida turli toifali shaxslardan (vazir, artist, rektor, maktab direktori va hokazo) intervyu olinishi aytildi, u o'zi bir a'zoni shu rolga tavsiya etadi. Tahlilda nima uchun aynan shu kishi

shu shaxsni tavsiya etilgani haqida ham fikr bildiriladi. "O‘zga bo‘lish san’ati" va oliv darajali muloqot texnikasi mashq qilish.

8. "XUShOMAD qilish" o‘yini. Guruh a’zolari bir-birlariga xushomad qila boshlaydilar. Maqsad: guruhdagi shaxslararo tanglikni bartaraf etish va psixoemotsional yengillik berish.

9. "OMMA OLDIDA CHIQISH QILISH". Bu o‘yinga a’zolar oldindan tayyorgarlik ko‘rishgani ma’qul. Chunki bunda ma’lum vaqt davomida notiqlik mahorati va gu-ruhga murojaat qilishning turli vositalari sinaladi va gapirish, eshitish san’atlari mashq qilinadi.

10. Breystorming uchun quyidagi mavzularni taklif qilish mumkin:

\_Yomon rahbar- u - Yaxshi ("yomon") ma’ruza - bu .....

- Men loqaydlik qilsam .....

- XXI asr yoshlari qanday bo‘ladi?

- Boshqa planetalardagi tirik mavjudotlar –

11. 2 minut vaqt ichida turli mavzularda ommaviy ma’ruzalar matnini tayyorlash yoki karralash. Mavzular -"Yoshlar muammosi", "O‘zbek ayollari masalasi", "Rahbarlik mansabmi yoki talantmi?", "Qishloq turmush tarzi" va "Uchrashuv" mavzusida rolli o‘yinlar. Bir holatda notanish odamlar, ikkinchi holatda tanish odamlar uchrashib qoladilar. Trening ishtirokchilari "Uchrashuv" qatnashchilarining o‘zaro muloqoti, o‘zini tutishlarini turli variatsiyalarda sinab, so‘ngra muhokama qiladilar.

12. "TANIShUV" : Turli yosh, jins, kasb-kordagi shaxslarning tanishuvchi sahnalari turli variantlarda o‘ynaladi.

13. "O‘ZINI TANISHTIRISH" o‘yini. 2 minutda har bir ishtirokchi o‘zi haqida xohlagan narsalarni aytib berishi va so‘ngra aytilganlar video yoki audiokassetalar

vositasida qaytarilib, shaxsning o‘zi va guruh tomonidan tahlil qilinadi.

14. "SALOMLAHISH". Trener guruh a’zolarini doira qilib o‘tqazib, so‘ng ularni har biri 2-3 kishidan iborat guruhchalarga ajratadi. Salomlahish mana bu so‘zlardan tuzilgan; andiq-sandiq-chandiq hormang, tolmang. Barcha ishtirokchilar salomlahishni bir vaqtda aytadi. Salomlahish baqirmsandan, balki bir tekis nafas olib talaffuz qilinadi. Nihoyat qandaydir "apchxi"ga o‘xhash so‘z hosil bo‘lishi kerak. U 2 - 3 marta takrorlanadi.

15. "Tug‘ilgan kunga sovg‘a". Trening a’zolaridan biri guruh oldiga chiqib o‘tiradi. O‘yinning hamma ishtirokchilarining vazifasi, o‘tirgan kishining tug‘ilgan kuniga har bir ishtirokchi individual tarzda sovg‘a qilish. "Sovg‘a berish" tugaganidan so‘ng, nima uchun aynan shu sovg‘a qilinganligi asoslanib berilishi kerak Mashqning ma’nosi: "Atrofingdagilar nechog‘lik seni turli-tuman, seni turlicha yoqtiradilar va idrok etadilar". Guruhnинг har bir a’zosi, trenerning o‘zi ham "imeninnik" rolini bajarishi mumkin. Bu yerda trenerning vazifasi - o‘z-o‘zini boshqarish muammosiga ko‘proq e’tibor berish.

16. "TANIHISH" o‘yini. Trenerning ko‘rsatmasiga binoan uning o‘ng yoki chap tomonida turgan ishtirokchilardan bittasi o‘z ismini aytadi. Ikkinci ishtirokchi esa birinchisining va o‘zining ismini aytadi. Treningning uchinchi ishtirokchisi esa, birinchisining, ikkinchisining va o‘zining ismini aytadi va shu tariqa oxirigacha davom etadi. Treningning oxirgi ishtirokchisi birinchisidan boshlab, to guruh a’zolarining hammasini va o‘zining ismini aytadi. Guruh a’zolarining bir-biri bilan tanihishi mana shu tarzda amalga oshadi. Agar guruh a’zolari tanish bo‘lsalar, ikkinchi turda har bir ishtirokchi o‘ziga "taxallus" (gul, meva, badiiy qahramon, planetalar nomi kabi) o‘ylab topib, keyin o‘sha taxallus bo‘yicha o‘zini "tanishtiradi". Bu mashq ham shaxslararo chiniqish, xotirani mustahkamlash, emotsional tanglikning oldini olish kabi maqsadlarda xizmat qilishi mumkin.

17. "INKOR ETILGANLAR" o'yini. Munozara yoki breynshtorming usuli yordamida jamiyatda inkor etilganlar toifasiga kiruvchilar va ularning paydo bo'lish omillari hamda shundaylarga yordam choralar haqida fikr almashiniladi. Ma'lum muddat o'tgach, guruhning o'zida ayrim belgilar asosida a'zolar toifalarga bo'linib, trener boshchiligida tabiiy eksperiment noli bilan "inkor etilganlikni his qilish" o'yini tashkil etilishi mumkin.

## XULOSA

Kommunikativ kompetentsiya eng muhim xususiyatlardan biri sifatida shaxs, tinglash qobiliyati va shaxsning nutq qobiliyatida namoyon bo'ladi. Bugungi zamonaviy sharoitda o'qituvchi va o'quvchi - talabalarning o'quvbilish faolligini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish hamda samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanishning maqsadga muvofiqligi hech kimga sir emas. Ma'lumki, bugungi kunda ta'lim amaliyotida qo'llanilayotgan amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul - kredit tizimi, masofali o'qitish, "blended learning" (aralash o'qitish) va mahorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda. Pedagogga xos bo'lgan mahorat asosini tashkil etuvchi pedagogik muloqot madaniyati uning talabalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan uyushtiriladigan muloqot jarayonida namoyon bo'ladi. Bunda, ayniqsa, pedagogning talabalar jamoasi bilan o'zaro muloqoti muhim ahamiyatga ega. Pedagog talabalar bilan muloqotga kirishish, uning samarali bo'lishiga intiladi.

Bugungi globallashuv jarayonida turli yot g'oyalar va zararli illatlardan yosh avlodni himoya qilish va ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirishdek mas'uliyatli vazifa zimmamizda turibdi. Yosh avlodni yuksak ma'naviyatli, milliy va umuminsoniy qadriytlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning ong va tafakkurida milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish, o'quvchining ruhiy olamiga ezgulik urug'ini ekishning asosiy manbayidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ashixmina T.A. Formirovaniye kommunikativnoy kompetentnosti studentov // Mir nauki, kul'turi` , obrazovaniya . -2012.- №4(35).-s. 52-54.
2. Luk'yanova M.I. Psixologo-pedagogicheskaya kompetentnostъ uchitelya // Moskva, Pedagogika. – 2001. – № 10. – s. 56-61.
3. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: "Fan", 2004. – 126 b.
4. Sharipov Sh.S. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. – T.: TDPU, 2005.–54 b.
5. Amirov N. Ta'lim jarayonida talabalar kommunikativ kompetentligini shakllantirish. Zamonaviy ta'lim. 2020, 3 (88). Jurnal. 25-bet.
6. Ivanov D.A. Kompetentnostnyu podxod v obrazovanii. Problemy. Ponyatiya. Instrumentariy / D.A. Ivanov, K.G. Mitrofanov, O.V. Sokolova. – M., Belkin A.C. Pedagogicheskaya kompetentnost/ A.S. Belkin, V. Nesterov. – Yekaterinburg, 2003. – S. 186.
7. Kasimov Sh.U., Jalilov E.E., Pulatov G.E. Soderjaniye professionalъnoy podgotovki budushix pedagogov/ Materialы konferentsii Rolъ psixologo-pedagogicheskix issledovaniy v innovatsionnom razvitiu obshchestva. 2019. – S. 68–70.
8. Qosimov Sh.U. Kasb-hunar kollejlarida amaliy kasbiy ta'limni tashkil etishning metodik asoslarini takomillashtirish / Ped.fan.fal.dok. dis. – T., O'MKHTTKMOQTI, 2018. – B. 176.
9. Antropova L.G. Sovrshenstvovaniye kommunikativnoy kompetentnosti uchitelya na osnove tvorcheskoy refleksii (v usloviyakh dopolnitelъnogo obrazovaniya): avtoref. kand. ped. nauk / L.G. Antropova. – Chelyabinsk, 1999. – S. 24.
10. Kodjaspirova, G.M. Pedagogicheskiy slovarъ [tekst]: dlya stud. vyssh. ped. ucheb. zaved / G.M. Kodjaspirova, Yu.A. Kodjaspirov, – M.: Akademiya, 2000. – S. 176.

11. Vvedeniye v pedagogicheskuyu deyatel'nost' [tekst]: ucheb. posobiye dlya stud. vyssh. ped. ucheb. zavedeniy / A.S. Robotova, T.V. Leont'eva, I.G. Shaposhnikova i dr. pod red. A.S. Robotovoy, – M.: Akademiya, 2002. – S. 208.

## M u n d a r i j a

Kirish .....	5
Kompetentlikning shaxs shakllanishidagi o'rni.....	7
Ta'limda kommunikativ kompetensiyanı shakllantirish yo'llari.....	10
Kommunikativ kompetensianing pedagogic va psixologik ahamiyati.....	12
Trening tushunchasi.....	17
Treningning asosiy qonunlari.....	19
Korreksion treninglar.....	26
Ijtimoiy psixologik treninglar uchun ssenariylar va munozaralar uchun ayrim mavzular.....	29
Xulosa.....	35
Foydalanilgan adabiyotlar .....	37

JURAYEVA DILAFRUZ JAMURODOVNA

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA  
TRENINGLARDAN FOYDALANISH

Terishga berildi: \_\_\_.02.2023 y.

Bosishga ruxsat berildi: \_\_\_.02.2023 y

Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/16.

«Times» garniturasi. Ofset bosma usuli.

2 bosma taboq

Adadi:25 nusxa.

Buyurtma №\_\_

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy  
markazi bosmaxonasida chop etildi.

Samarqand shahar Hasan Obiddinov ko‘chasi 7-uy



